

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

12/2-son (dekabr 2025)

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan**



**Urganch – 2025
ASLIGA TO'G'RI**

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**


TAHRIR HAY'ATI:

ABDULLAYEV Ilyos, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (UrDU),
ABDULLAYEV O'tkir, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, (UrDU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DO'SCHONOV Tangriborgan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, (UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMATOV Rashid Yangibaevich, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
JUMANIYOZOV Zohid Otaboyevich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
KURAMBAYEV Sherzod Raimberganovich, texnika fanlari doktori, dotsent (UrDU),
MADRAXIMOVA Feruza Ruzimbayevna, pedagogika fanlari doktori, dotsent (UrDPI),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa'dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO'ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O'zMU),
SALAYEV San'atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SATIPOV G'oiptnazar, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),
YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
O'ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU),
O'ROZBOYEV G'ayrat, fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU),
G'AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul kotib, UrDU).

JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN • JURNAL

OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI • 12/2-son (dekabr 2025)

MUASSIS: Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti • Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan • **GUVOHNOMA № 1131.**



ASLIGA TO'G'RI

Maxmarizayev Xurshid Otaqulovich (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti "Jismoniy madaniyat"
kafedrası dotsenti; e-mail: maxmarizayevxurshid@gmail.com)

KOGNITIV MOSLASHUVCHANLIK VA METAKOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida kognitiv moslashuvchanlik va metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslariga bag'ishlangan. Raqamli ta'lim muhitining murakkabligi (axborot yuklamasi, gipermatn, sun'iy intellekt integratsiyasi) tahlil qilinib, bu sharoitlarda yuqori darajadagi aqliy moslashuvchanlik va o'z-o'zini samarali boshqarish zaruriyati asoslanadi. Tadqiqotda mazkur kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha aniq mexanizmlar – muammoli ta'lim (PBL), reflektiv e-portfoliolar va virtual simulatsiyalar yordamida interfaol usullar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchilar, kognitiv moslashuvchanlik, metakognitiv ko'nikmalar, raqamli ta'lim muhiti, PBL, refleksiya.

Махмаризаев Хуршид Отакулович (Шахрисабзский государственный педагогический институт
доцент кафедры физической культуры; e-mail: maxmarizayevxurshid@gmail.com)

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОГНИТИВНОЙ ГИБКОСТИ И МЕТАКОГНИТИВНЫХ НАВЫКОВ

Аннотация. Данная статья посвящена теоретико-методологическим основам развития когнитивной гибкости и метакогнитивных навыков в процессе профессиональной подготовки будущих учителей. Анализируется сложность цифровой образовательной среды (информационная перегрузка, гипертекст, интеграция искусственного интеллекта) и обосновывается необходимость высокого уровня умственной адаптивности и эффективного саморегулирования в этих условиях. В исследовании предлагаются конкретные механизмы формирования данных компетенций, включая интерактивные методы с использованием проблемно-ориентированного обучения (PBL), рефлексивных электронных портфолио и виртуальных симуляций.

Ключевые слова: будущие учителя, когнитивная гибкость, метакогнитивные навыки, цифровая образовательная среда, ПОО, рефлексия.

Makhmarizayev Khurshid Otakulovich (Shahrisabz State Pedagogical Institute Associate Professor of the
Department of Physical Culture; e-mail: maxmarizayevxurshid@gmail.com)

MECHANISMS FOR THE FORMATION OF COGNITIVE ADAPTATION AND METACOGNITIVE SKILLS


Annotation. This article is devoted to the theoretical and methodological foundations for developing cognitive flexibility and metacognitive skills in the professional training of future teachers. It analyzes the complexity of the digital learning environment (information overload, hypertext, artificial intelligence integration) and justifies the necessity for high-level mental adaptability and effective self-regulation under these conditions. The research proposes concrete mechanisms for forming these competencies, including interactive methods using Problem-Based Learning (PBL), reflective e-portfolios, and virtual simulations.

Keywords: future teachers, cognitive flexibility, metacognitive skills, digital learning environment, PBL, reflection.

Kirish. XXI asr ta'lim paradigmasining asosiy o'zgarishi o'qituvchining bilim manbai roldan faoliyatni tashkil etuvchi va kognitiv jarayonlarni boshqaruvchi rolgacha o'tishidir. Raqamli ta'lim muhiti — cheksiz axborot oqimi, tezkor o'zgaruvchan texnologiyalar va global tarmoqlar o'zaro kesishgan murakkab tizim bo'lib, bu sharoitda an'anaviy pedagogik ko'nikmalar yetarli emas. Bo'lajak o'qituvchi oldida turgan asosiy vazifa nafaqat yangi axborotni o'zlashtirish, balki o'quv vaziyatlari tez o'zgarganda fikrlash yo'nalishini tezda almashtira olish (kognitiv moslashuvchanlik) va o'z o'rganish jarayonini mustaqil boshqara olish (metakognitiv ko'nikmalar) qobiliyatiga ega bo'lishdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar dasturida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o'qituvchi kadrlarining kompetensiyalarini takomillashtirish ustuvor yo'nalish etib belgilangan. Ushbu sharoitda raqamli muhitning talabalarning kognitiv salohiyatini shakllantirishga ta'sirini chuqur o'rganish va buning uchun samarali metodologiyalarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Raqamli ta'lim muhitining kognitiv yuklamaga ta'sirini tahlil qilish asosida kognitiv moslashuvchanlik modelining takomillashtirilishi. "Metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishda refleksiya va o'z-o'zini baholashning raqamli vositalaridan foydalanish metodikasining



ishlab chiqilishi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida bu ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan amaliy takliflarning ilgari surilishi" [1]. *Raqamli muhitning o'quv jarayoniga ta'siri*. Raqamli ta'lim muhiti an'anaviy ta'lim jarayoniga nisbatan bir qator o'ziga xos xususiyatlarni kiritadi, bu esa o'qituvchidan yangi darajadagi kognitiv yondashuvni talab qiladi: "Chiziqlik va Gipermatn: Raqamli axborot, ayniqsa, gipermatnlar ko'rinishida tashkil etilgan bo'ladi. Bu ma'lumotni ketma-ket, bir manbadan o'rganish o'rniga, turli manbalar va yo'nalishlar orasida doimiy ravishda o'tishni talab qiladi" [2]. Bu kognitiv moslashuvchanlikni faollashtiradi, chunki o'qituvchi o'quvchilarni bir vaqtning o'zida bir nechta manbalarni tahlil qilishga, ular orasidagi bog'liqlikni topishga va fikrlash fokusini tezda almashtirishga o'rgatishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi Multimodallik: Bilim faqat matn orqali emas, balki video, audio, interaktiv simulatsiya va infografika kabi turli kanallar orqali yetkaziladi. O'qituvchi bir dars doirasida ushbu turli xil ma'lumot turlarini qayta ishlashi, ularni sintez qilishi va o'quvchilarga yetkaza olishi lozim. Bu, o'z navbatida, murakkab kognitiv ko'nikmalarni, xususan, turli ma'lumotlarni umumlashtirish qobiliyatini rivojlantirish zaruriyatini kuchaytiradi. Harakatli interaktivlik: Raqamli muhitda o'quvchi passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchidir. O'qituvchi dars davomida doimiy ravishda chat xabarlarini, so'rovlarni, guruh ishlaridagi o'zgarishlar va o'quvchilarning real vaqtdagi savollariga javob berishi kerak. Bu vaziyat diqqatni taqsimlash va tezkor qaror qabul qilish (kognitiv moslashuvchanlik) talabini keskin oshiradi.

Vaqtning moslashuvchan rejalashtirish (Self-Pacing): "Ko'pgina onlayn kurslar asinxron (bir vaqtning o'zida emas) tarzda o'tiladi, bu esa o'qituvchidan o'quv materiallarini o'zlashtirish uchun individual vaqt jadvalini tuzish va uni qat'iy monitoring qilishni talab etadi. Bu bevosita metakognitiv rejalashtirish va nazorat funksiyalarining rivojlanganligiga bog'liq. Texnologik o'z-o'zini samara (Self-Efficacy): o'qituvchi o'zining texnologik bilimiga bo'lgan ishonchini (texnologik o'z-o'zini samara) oshirishi zarur" [3]. Metakognitiv ko'nikmalar ushbu ishonchni mustahkamlaydi, chunki o'qituvchi yangi texnologiyani o'zlashtirish rejasini tuza oladi, uni amalga oshiradi va yakuniy natijani baholab, o'ziga xulosa chiqara oladi.

Kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirishda muammoli ta'lim (PBL) va keys-stadi usullarini raqamli formatda qo'llanilishi. Kognitiv moslashuvchanlik bu o'qituvchilik faoliyatida tez o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashish, turli g'oyalar yoki strategiyalar orasida osonlikcha almashish qobiliyatidir. Raqamli ta'lim muhitida ushbu ko'nikmani rivojlantirish uchun an'anaviy metodlarni interfaol va dinamik raqamli vositalar bilan birlashtirish zarur.

Tahlil va natijalar Muammoli Ta'lim (Problem-Based Learning, PBL) PBL – bu talabalarni hayotiy yoki kasbiy muammoga duch kelishga undovchi metod bo'lib, ular mustaqil ravishda axborot izlash, farazlarni ilgari surish va yechim topish orqali bilimlarni o'zlashtiradilar. "Raqamli muhitda PBL quyidagicha amalga oshiriladi: muammoni virtualizatsiya qilish: haqiqiy maktab sharoitlariga o'xshash virtual vaziyatlar yaratiladi (masalan, Google Classroom yoki Moodle'da). Muammo matnli bayonot emas, balki audio, video yoki simulatsion dasturlar orqali taqdim etiladi" [4].

Misol. Talabalar Zoom orqali o'tkazilgan darsdagi kutilmagan texnik nosozlik yoki dars vaqtida o'quvchining motivatsiyasining keskin tushib ketishi kabi murakkab vaziyatni hal qilishlari kerak. "Axborotni differensiallash: talabalarga muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan manbalar to'plami taqdim etiladi, lekin bu manbalar orasida to'g'ri, noto'g'ri va chalg'ituvchi axborotlar mavjud bo'ladi" [5]. Bu talabani mantiqiy xulosaga kelish uchun turli xil ma'lumotlarni saralashga (kognitiv moslashuvchanlikni faollashtirishga) majbur qiladi. Hajmli keys-stadi (multi-perspektiv yondashuv): keys-stadi faqat bir tomonlama yechimga ega bo'lmasligi, aksincha, pedagogik muammoning turli yechimlari (psixologik, metodik, texnologik) o'zaro raqobatlashadigan formatda taqdim etilishi lozim. Bu yechimlarni baholash talabning kognitiv doirasini kengaytiradi.

Xulosa. Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv moslashuvchanligi va metakognitiv ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik innovatsiyalarni texnologik yechimlar bilan integratsiyalashni talab qiladi. Muammoli ta'lim, interaktiv keyslar va reflektiv elektron portfoliolar kabi usullar talabalarning intellektual faoliyatini tartibga soladi. Simulatsion va VR texnologiyalari esa nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda sinash imkonini beradi. Ushbu yondashuvlar majmuasi bo'lajak pedagoglarni murakkab, tez o'zgaruvchan zamonaviy ta'lim talablariga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Avloniy, Abdulla. Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent, "O'qituvchi", 2017 (Pedagogik yondashuv asoslari).

(2). Inoyatov U.I., Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogika. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2014 (Bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash asoslari).

(3). Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning nazariy-metodik asoslari. Toshkent, "Fan", 2007 (Kompetensiyaviy yondashuv).

(4). И. А. Зимняя. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании / - Москва: Исслед. центр. пробл. качества подгот. специалистов, 2004., (Kompetensiya nazariyasi).

(5). Erkin o'g'li, Nematov Oybek. Pedagogik dasturiy vositalar. Modern educational system and innovative teaching solutions 1.3 (2024), p. 147–150.

(6). Oybek o'g'li, Nematov. Visme dasturining afzalliklari. Studying the progress of science and its shortcomings 1.2 (2024), p. 230–234.

(7). Flavell J.H. Cognitive aspects of early childhood education. New York, Psychological Press, 1971, (Metakognitiv tushunchalarning asoslanishi).

(8). Nomozov Xurshid (2024). Jamiyatda internet-makon kontentlari ta'sirida sodir bo'layotgan negativ ijtimoiylashuv shakllari. Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar, 1(2), 52–58-betlar.

(9). O'g'li, Nomozov Xurshid Shavkat. Yuksak axborot madaniyati–internet-makon resurslaridan ratsional foydalanish sharti. Research Focus 2.6 (2023), p. 105–110.

(10). Nomozov Xurshid (2022). Threats to information security in educational institutions. Gospodarka i Innovatsiya, 22, p. 229–231.

(11). Nomozov Xurshid. Axborot xurujlarining manbalari, ularning ijtimoiy muhitda amalga oshirish usullari. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari 41.1 (2025), 632–636-betlar.

(12). Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. Axborotning zamonaviy tarkibi. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari 41.1 (2025), 628–631-betlar.

(13). Nomozov Xurshid. Internet-makon mohiyati, genezisi va zamonaviy tarkibi. Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar 1.2 (2024), 48–51-betlar.

(14). Nomozov Xurshid. Axborot xurujining o'smirlar hayotiga ta'siri. "Qo'qon universiteti xabarnomasi" (2023), 1285–1287-betlar.

Murodov Nodirbek Oybek o'g'li (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining Markaziy kengashi ijroiya qo'mitasi devoni yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalari bo'limi bosh mutaxassisi;

e-mail: nodirbekk98@bk.ru

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA YOSHLARNING SIYOSIY ONGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR DIDAKTIK YONDASHUVLAR

***Annotatsiya.** Maqolada milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari va ularni takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda yoshlarning siyosiy ongini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni, zamonaviy didaktik yondashuvlar va pedagogik texnologiyalar tahlil qilingan. Muallif tomonidan milliy qadriyatlar va siyosiy tarbiya integratsiyasini ta'minlovchi didaktik model ishlab chiqilgan hamda uning samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarga asoslangan innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.*

***Kalit so'zlar:** milliy qadriyatlar, siyosiy ong, yoshlar tarbiyasi, didaktik yondashuvlar, ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlar, siyosiy madaniyat, pedagogik texnologiyalar.*

Муродов Нодирбек Ойбек угли (Базовый докторант Национального института педагогики воспитания имени Кори Ниязи, Главный специалист отдела по вопросам повышения социально-политической активности молодежи Аппарата Исполнительного комитета Центрального Совета Демократической партии Узбекистана «Миллий тикланиш»; e-mail: nodirbekk98@bk.ru)

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ РАЗВИТИЯ ПОЛИТИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ МОЛОДЕЖИ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

***Аннотация.** В статье исследуются социально-педагогические возможности развития политического сознания молодежи на основе национальных ценностей и вопросы их совершенствования. В исследовании анализируются роль национальных ценностей в формировании политического сознания молодежи, современные дидактические подходы и педагогические технологии. Ав-*